

2015-yil – Keksalarni e'zozlash yili

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:50 (67007)

2014-yil
15-dekabr



TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

ISTE'DODLI YOSHLAR – YURT TAYANCHI



Aziz o'quvchilar! Xabaringiz bor, yaqinda «Kamalak yulduzlari» bolalar ijodiyoti festivalining respublika bosqichi bo'lib o'tdi. Mazkur festivalda Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 11-umumta'lim maktabining 6-«G» sinf o'quvchisi Durdona Qurbonova ham ishtirok etdi va sovrindorlar safida bo'ldi. Bugun uning quvonchiga yana bir quvonch qo'shildi.

– Kuni kecha Prezidentimiz Termiz shahriga Amir Temur ordenini topshirish marosimida so'zlagan nutqida «Aziz farzandlarimiz hech qachon hech kimdan kam bo'lmaydi, biz boshlagan buyuk ishlarni davom ettiradi, barcha sohalarida eng yuksak marralarni, albatta, zabt etadi», deya bizga katta ishonch va g'urur bilan aytgan gaplari meni yanada ruhlantirib yubordi. Bu ishonchni biz yoshlar, albatta, oqlaymiz, – deydi tengdoshingiz Durdona.

DIQQAT!
DIQQAT!



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshidagi aniq fanlarga ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabi o'quvchilarining 76 nafari «Tong yulduzi»ga 2015-yil uchun obuna bo'lishdi.

Nashr ko'rsatkichi – 198

Ushbu sonda:

BOLA QALBI
YOZILMAGAN OPPOQ
DAFTARDIR

3-bet

QALBNING
DUR-U
JAVOHIRLARI

6-bet

AKA-UKA
SINDOROULARNING
NAUBATDAGI G'ALABASI

7-bet

Sh. MAXMADIYEV olgan suratlar

BAYRAMLAR MAMLAKATI



Yurtimizda biz uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ayniqsa, yakunlanib borayotgan «Sog'lom bola yili»da bolajonlarga ko'rsatilgan g'amxo'rlik hech qaysi davlatda bo'lmasa kerak, nazarimda. Mamlakatimizdagi chet el vakolatxonalarini vakillarining yurtimiz haqidagi fikrlarini tinglab, mana shunday yurtda tug'ilganimdan, shu mamlakatdagi barkamol avlod qatorida voyaga yetayotganimdan boshim ko'kka yetdi. Prezidentimizning 2015-yilni «Keksalarni e'zozlash yili» deb e'lon qilishlari barchaga birdek manzur bo'lgani, shubhasiz. Yangi – «Keksalarni e'zozlash yili» barchamizga qutlug' bo'lsin.

Soliha MIRZOIDOVA,
poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi
265-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi

MATBUOT KUNLARI

Kuni kecha poytaxtimizning Bektemir tumanidagi 289-umumta'lim maktabida «Matbuot kunlari» bo'lib o'tdi.



Unda tumandagi ta'lim muassasalarining iqtidorli, ijodkor o'quvchilari ishtirok etdi. Vatan, ona, mustaqillik, do'stlik mavzusidagi she'rilar davraga fayz ulashdi. Tasviriy san'atga ishtiyoqi baland o'quvchilar o'zlarining ijod namunalari haqida to'lqinlanib gapirishdi. Tadbirda tuman

XTMFMTTE bo'limi metodisti Galina Ahmadziyanova so'zga chiqib, respublikamizda bolalar nashrlariga qaratilayotgan e'tibor xususida to'xtalib, tuman o'quvchilarining joriy obuna mavsumida ham faol bo'lishlarini ta'kidlab o'tdi.

Mahmudjon AZIMOV

Ona tabiat insonlarga mehnat qilib, kamolotga erishish, undan zavq-shavq olish baxtini nasib etgan.

MEHNATDAN TOPILGAN BAXT

Buxoro viloyati, Vobkent tumanidagi 21-umumta'lim maktabidagi rahbarlik qilayotgan Baxtiyor Boboqulov ana shunday insonlar sirasidandir.

O'zi o'qigan maktabda o'quvchilarga fransuz tilidan ta'lim bera boshlagan yosh mutaxassis tirishqoqli, izlanuvchanligi bois, ilmiy bo'lim mudiri sifatida butun iqtidori va iste'dodini namoyon etdi.

Yosh, tashabbuskor xodim faoliyati davomida turli mas'ul lavozimlarga tayinlandi. Baxtiyor aka qayerda bo'lmasin, o'ziga bildirilgan ishonchni sharaf bilan oqladi.

Maktabda fan xonalari, laboratoriya jihozlarini takomillashtirish, kompyuter xonasidan unumli foydalanishga e'tiborni qaratdi. Ta'lim maskani qayta ta'mirlanib, yangi mebellar, o'quv texnik jihozlari bilan ta'minlandi.

Viloyatda fransuz tili bo'yicha tayanch hisoblangan mazkur maktab o'quvchilari fan olimpiadalarini yu bilimlar bellashuvida o'z bilimlarini namoyish etib kelishayotganini alohida ta'kidlash joiz. Jumladan, joriy yilda 6-«B» sinf o'quvchisi Muhriddin Zubaydullayev, 7-«A» sinf o'quvchisi Gulnoza Karimova «Bilimlar bellashuvi» viloyat bosqichida fransuz tili fanidan 95 ball to'plab 2-o'rin, 8-«A» sinf o'quvchisi Mahmudjon Bahshullayev esa 3-o'rinni egalladi. Shuningdek, 8-«A» sinf o'quvchisi Ma'rifat Elmurodova «Orasta qizlar» bellashuvining viloyat bosqichida 2-o'rin sohibi bo'ldi.

Ustozning umr yo'ldoshi Tozagul Normetova ham fidoyi o'qituvchilardan biri sifatida el nazoriga tushgan. To'rt nafar farzandlari ham ular kasbini davom ettirishmoqda. Umrini bolalarga, ularning puxta bilim olishi uchun baxshida etayotgan bu insonni atrofda qilgan ham ardoqlashadi. Uning maslahatlariga amal qilishadi. Birovning koriga yarash baxti bebaho ne'mat. Vaqti kelib ustozning shogirdlari ham shunday baxtga erishishsa, ne ajab?

Nurbek QIDIRALIYEV

«TONG YULDUZI» BIZ BILAN BIRGA

2x2=4, bu oddiygina karra jadvalini barchangiz bilasiz, shundaymi? Ammo matematikaga oid tangens, kotangens, logarifmlarga taalluqli misol-u masalalarni bajarishga tobgingiz qalay? Ularni ham soddagina amallar sirasiga kirita olasizmi? Poytaxtimizning Chilonzor tumanida joylashgan Aniq fanlarga ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabi (AFIDUM)da tahsil olayotgan tengdoshlaringizga bunday topshiriqlar sira qiyinchilik tug'dirmaydi. Boisi, ular aynan siz murakkab deb bilgan algebra faniga juda qiziqishadi.

Fariduddin aka Usmonov rahbarlik qilayotgan ushbu maskanda ayni damda 1260 o'quvchiga 76 nafar ustoz-murabbiylar saboq berishadi. Maktabda matematika bilan birga iqtisod, fizika, ingliz tili fanlari chuqurlashtirilgan tarzda o'qitiladi. Maktab o'quvchilari faqat matematik formulalarni yechishni bilarkan-da, deb o'ylasangiz, xato qilasiz. Bu yerda sportning bir necha turi bo'yicha yutuqlarga erishgan o'quvchilar ham bor.

Hojiakbar USMONOV, 6-«G» sinf o'quvchisi:

– Men barcha fanlardan a'lo baholarga o'qiyman. Maktabda aqlan, sport seksiyalaridagi to'garaklarda esa jismonan chiniqamiz. Men sportning suzish turiga qatnayman. Suzish vaqtida insonning barcha mushaklari harakatga keladi va shu sabab miya faoliyati yaxshilanadi. Bu esa biz uchun juda muhim.

Mirasil MIRRAHIMOV, 6-«D» sinf o'quvchisi:

– Men taekvondoning ITF turiga qiziqaman. Mana, besh yildirki, ushbu tur bo'yicha ko'plab musobaqalarda qo'lim baland kelmoqda. Sport kishining irodasi mustahkam bo'lishida yaqindan yordam beradi.

Shuningdek, mazkur sinfning Humoyun Boltaboyev, Sunnat Sobirov, Mohirjon

Abduqodirov, 6-«I» sinf o'quvchisi Abduqodir Abdurashidovning ham sport sohasida erishgan yutuqlari bisyor.

Yaqinda maktabda «Bizning buyuk ajdodlarimiz» nomli ingliz tilida tadbir o'tkazildi. Unda maktabning 9-«B» sinf o'quvchilari ingliz tilida so'zlashish mahoratlarini namoyish etib, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Nodirabegim, Uvaysiy timsolida so'zga chiqishdi. Ingliz tili o'qituvchisi Taxmina Yusupovaning sa'y-harakatlari tufayli tadbir barcha o'qituvchilar va o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi.

– Xorijiy tillarni o'rganishga juda qiziqaman. Bunday tadbirlar bizni ingliz tilini mukammal o'rganishimizda, ayniqsa, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishimizga ko'mak beradi, – deydi 9-«B» sinf o'quvchisi Rahimjon Usmonov.

Maktabdan chiqarkanman, sinfxonalardagi matematik formulalarni jo'r ovoza takrorlayotgan o'quvchilarning ovozi qulog'imga chalindi va ta'lim



Abdullo HAMIDULLAYEV olgan surat

maskanidagi kelajagimiz vorislarining orzu-umidlari, harakatlari, intilishlari ham ana shunday baralla ovoza yangrayotgandek tuyuldi.

Ozoda TURSUNBOYEVA

G'URURIMSAN, QOMUSIM!

Yaqinda Respublikamizning barcha o'quv muassasalarida «Huquqiy bilimlar» oyligi o'tkazildi.

Jumladan, poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi Ma'suda opa Sodiqova rahbarlik qilayotgan 138-umumta'lim maktabida ham bu borada talay ishlar amalga oshirildi.

Maktabning ma'naviyat-ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Zahro Iminova, o'qituvchilardan Malika Ibrohimova, Sabohat Sa'dullayeva boshchiligida 7-«B» sinf o'quvchilari «G'ururimsan, Qomusim!» deb nomlangan tadbir o'tkazishdi. O'qituvchilardan Munira Ismatova, Maftuna Ozodova, Nigora Nurmatova, Shahzod To'laganov, Nodir Tohirjonov faol ishtirok etib, egallagan huquqiy bilimlarini namoyish qilishdi. «Sen qonunni bilasanmi?» mavzusida esa 7-«A» va 7-«V», 9-«A» va 9-«B» sinf o'quvchilari o'zaro bellashishdi. Tadbir, bellashuvlarning qiziqarli o'tishida o'quvchilarni kerakli qo'llanma va adabiyotlar bilan ta'minlagan kutubxona mudiri Zahro Valijonovaning hissasi katta bo'ldi.

SHODIYONALAR DAVOM ETADI

Ma'lumki, poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 144-umumta'lim maktabida yilning so'nggi oyi - boshlang'ich sinflar oyligi deb belgilangan. Oylik doirasida ochiq darslar, tarbiyaviy soatlar, bayram va ertaliklar o'tkazilmoqda.



Maktabining Mashrabxon Umarsharab rahbarlik qilayotgan 2-«A» sinfida ham qutlug' sana munosabati bilan «Baxtimiz qomusi» mavzusida ochiq tarbiyaviy soat o'tkazildi. Jajji kichkintoylar tadbir davomida egallab olgan boshlang'ich huquqiy bilimlarini chiroyli namoyish etishdi. Mustaqil O'zbekiston, Vatani, Konstitutsiya, tinchlik, ota-ona haqidagi she'rlarni Maftuna Mirzayeva, Odiljon G'ofirjonov, Diyora Ashirova, Xadicha Mamajonova singari o'quvchilar ifodali tarzda o'qib, yig'ilganlarni xushnud qilishdi. Ayniqsa, Shirina Nosirjonova ijro etgan «Humo qushi» raqsi barchaga birdek manzur bo'ldi.

Dilorom HOTAMOVA

BAXTIMIZ POYDEVORI

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 22 yilligi munosabati bilan Marg'ilon shahridagi 3-umumta'lim maktabida qator tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Jumladan, tarix fani o'qituvchisi Abduvohid Mamasiddiqov tomonidan haftada bir marta yuqori sinf o'quvchilari uchun tashkil etilayotgan «Huquq soatlari» mashg'ulotlarida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati ochib beriladi.

Konstitutsiyamizni benazir huquqiy qadriyat sifatida asrab-avaylash, o'qish-o'rganish, mazmun-mohiyatini tushunish, amaliy faoliyatda unga og'ishmay rioya qilish, bayon etilgan huquqlardan samarali foydalanish, amaliyotga tatbiq etish, omma o'rtasida keng targ'ib qilish, u bilan faxrlanish har birimiz uchun sharaftir.

Muhammadjon MAHMUDOV

ALLOMANI YODGA OLIB...

Yaqinda shahrimizdagi o'quv dargohlaridan biri, Shayxontohur tibbiyot kollejida buyuk alloma Abu Ali ibn Sinoga bag'ishlangan ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi.

Tadbirdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarga allomaning asarlari to'g'risida kengroq ma'lumot berish bo'lib, konferensiyada kollej o'quvchilari tomonidan qomusiy olim asarlari ko'rgazmasi tashkil etildi.

O'quvchilar Ibn Sinoning sog'liq haqidagi «Oltin qoidalar»ni yod aytib, besh qismdan iborat bo'lgan «Tib qonunlari» asari haqida so'z yuritishdi. Tadbir mehmonlarida o'zgacha taassurot uyg'otdi. Bo'lajak tibbiyot xodimlari tomonidan tayyorlangan sahna ko'rinishlari esa tadbirga fayz bag'ishladi.

Shahnoza MUHAMMEDOVA

SHOIRA BO'LMOQCHIMAN

She'r daftari qo'limda,
Ezgu niyat ko'nglimda.
Yorug' nur bor yo'limda,
Shoira bo'lmoqchiman.

Vatanimni madh etib,
Tinchlik qadriga yetib.
Qo'limda qalam tutib,
Shoira bo'lmoqchiman.

Bobolarim qo'llaydi,
Menga oq yo'l tilaydi.
Shamol sochim silaydi,
Shoira bo'lmoqchiman.

Istiqlol berdi imkon,
Uni tan oldi jahon.
She'rimda O'zbekiston,
Shoira bo'lmoqchiman.

Sevara ALIMARDONOVA,
Surxondaryo viloyati, Uzun
tumanidagi 21-umumta'lim
maktabining 7-sinf o'quvchisi



BOLA QALBI YOZILMAGAN OPPOQ DAFTARDIR

Zulfiya tavalludining 100 yilligiga

O'zbekning Zulfiyasi...
Ustoz Zulfiyaxonim...
Qardron Zulfiya opamiz...

Bugun bu ibora, bu atamalarni deyarli har kuni eshitamiz. Eshitganimiz, o'qiganimiz sayin Prezidentimizning xalqimiz uchun ardoqli bo'lgan shoiraning 100 yilligini nishonlash haqidagi Qarorining mohiyatini yana ham teranroq anglaymiz.

Xalqning qalbida saqlangan, xalq uchun aziz bo'lgan xotiralarda uning o'g'il-qizlari uchun ham ibrat bo'larli voqealar borligini his etamiz. Ustoz Zulfiyaxonim o'zining bolalik chog'larini esga olar ekan, ko'z oldimizda u kishining onasi baland bo'yli, oppoq kiyingan ayol qiyofasida namoyon bo'ladi. Xadicha otin - shoiraning onasi o'tgan asrning 30-yillari ayollari kabi hayotda ko'p yo'qotishlar ko'rgan. Xadicha bibi taqdirning og'ir sinovlari aro ham ziyrak, zukko qiziga kitob o'qib berishga, kitobga mehr uyg'otishga vaqt topadi.

«Onam menga kitob o'qib berardi. Kechqurunlari qo'ni-qo'shnilar chiqishar edi. «Mashrab devoni», «So'fi Olloyor» kabi kitoblarni onam o'qishdan, biz esa eshitishdan charchamasdik», deya xotirlaydi shoira.



«O'tkan kunlar» kabi ajoyib romanlar qatag'on qilingan paytda shoiraning onasi bu kabi noyob asarlarni yashirincha o'qib berardi. Zulfiyaning adabiyotga mehri o'sha otinbibining o'z qayg'ularini yengib, onalik burchini to'la do etgan davrlardan boshlangani, shubhasiz. Oradan bir asrga yaqin vaqt o'tgan bo'lsa-da, Xadichabibining tarbiyasini bugungi onalarga ibrat qilib ko'rsatgimiz keladi.

Shoira onasi qalbidan ziyonigina emas, cheksiz mehni ham meros qilib olgandi.

Ustoz bir gal Farg'ona vodiysiga boradi va u yerdagi ixlosmandlari opani yo'qlashadi. Ularning orasida o'n yoshli Alisher ismli o'quvchi bola ham bor edi. U rubob chalardi. Shoiraning ziyakkina bu bolacha bilan qilgan suhbatiga ajoyib ilhom beradi va u: «Bir bola bor, oti Alisher» sarlavhali turkum yozadi.

Alisher hozir iqtisod fanlari nomzodi, Farg'ona davlat universitetida ishlaydi. Hayratdan she'rga, she'riyatdan hayotga ko'chgan bu yorqin taqdir shoira Zulfiyaxonimning iqtidorli bolalarga bo'lgan cheksiz mehri va ehtiromini isbotlaydi.

O'sha yillari Hamid Olimjon va Zulfiya oilasida qiz farzand dunyoga keladi. Avval unga Hayotxon deya ism bermoqchi bo'lishadi, so'ng Hulkar ismida to'xtashadi.

Zulfiyaxonim faqat o'z farzandlariga emas, naslning davomchilari bo'lgan nevaralariga ham muhabbatli munosabatda bo'lgan.

«Ulug'bekka», «Lola uyimizda edi bir g'uncha» deb boshlanuvchi Lolaxon nabirasiga atalgan she'rlar bu fikrimizning dalilidir. «O'zi ham el sevadigan yigit bo'lib voyaga yetsin», «Qanday ajoyib insonlar kamol topar ekan bu uch og'ayni botirlardan...» Bu satrlardagi istaklar ham shoiraning keliniga yozgan maktubidan olingan.

Shoiraning farzandlarga mehr-muhabbati uning she'rlarida o'z aksini topgan. O'g'li Omon Olimjonov uzoq yillar nufuzli tashkilotlarda faoliyat olib bordi, qizi Hulkar Olimjonova O'zbekiston Milliy universitetida dars berdi, ikkovlari ham fan nomzodlari. Bugun ularning farzandlari ham sharqshunoslik, tarix, huquqshunoslik kabi sohalarida faoliyat olib bormoqda. Shoira ijodida onalar, bolalar uchun Vatani muhabbatini anglatmoq, Vatanga sadoqat bilan xizmat etmoqqa chorlashdek buyuk ibrat bor. Shu ibratni shoira hayotida ham ko'ramiz.

Qutlibeka RAHIMBOYEVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi


Kitob – kishi tafakkurini tiniqlashtiradi, erkin fikrlashga chorlaydi. Donolar aytganidek, «Kitobi bor uying oftobi bor».

MA'NAVIYAT IRMOG'I

Maktabimiz kutubxonasi doimo o'quvchilar bilan gavjum. Kutubxona mudirasi Muhayyoxon Asqarova «Yosh kitobxonlar» to'garagining jonkuyar rahbari. U faol kitobxonlar bilan turli tadbirlar o'tkazadi, biror badiiy asarning yozilishi yoki qahramonlari haqida o'rtoqlashadi.

Ayni kunlarda «Eng yaxshi kitobxon», «Biz sevgan kitob», «Prezident asarlari bilimdoni» kabi adabiy kechalar o'tkazilmoqda. Bundan tashqari, elektron kutubxona orqali «ZiyoNET» tarmog'iga ulanishimiz kitobxon do'stlarimiz bilan fikr almashish, o'zimizga kerakli ma'lumotlarni olish imkonini bermoqda.

Abdullajon TO'G'ONOV,
Farg'ona viloyati, Furqat tumanidagi
36-umumta'lim maktabi o'quvchisi



MUNOSIB SOVG'A

Kitobga oshno inson dunyoqarashi keng, ibratli fazilatlariga boy bo'ladi.

Shoasqar aka Ilyasov ham ana shunday insonlardan biri. U bolaligidanoq ko'plab kitoblarni sevib mutolaa qilgan, uni yaqin do'st deb bilgan. Hayotda ne-ne quvunchli kunlar, muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa, hammasini kitobdan deb biladi. Endilikda o'zidagi bu ibratli xislatni farzandlari, ularning do'stlariga ham o'rgatmoqda.

– Kimki yaxshilik qilaman, desa, kitobga suyansin,– deydi Shoasqar aka. – Katta-yu kichik uchun eng yaxshi sovg'a, yaqin do'st, maslahatchi ham kitobdir. Men yaqinlarimga har doim yangi adabiyotlarni tortiq etaman.

Shoasqar akaning ikkinchi o'g'li Sarvar Toshkent shahri, Yunusobod tumanidagi 97-umumta'lim maktabining 6-«V» sinfida o'qiydi. Eng a'lochi va faol o'quvchilardan. U yaqinda 12 yoshga to'ldi. Muchal yoshidagi o'g'lining sinfdoshlariga «Dunyo mamlakatlari», «Dunyo shaharlari» nomli kitoblarni sovg'a qildi.

– Shoasqar aka singari ma'rifatli insonlar ibratini ko'pchilikka namunadir,

– deydi 6-«V» sinf rahbari Nodira To'rayeva. – Ularning qo'llab-quvvatlashi tufayli o'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishlari yanada ortmoqda. Sinfimiz o'quvchilari nafaqat kitoblarni, balki gazeta va jurnallarni ham sevib o'qiydilar. Ularning ko'pchiligi «Tong yulduzi» gazetasiga 2015-yil uchun obuna bo'lishdi.

Feruza RAZZOQOVA

TASAVVURLARIMIZ BOYIDI

Yaqinda Jizzax tumanidagi 58-umumta'lim maktabida «O'zbekiston Respublikasi Davlat ramzlari» mavzusida kecha bo'lib o'tdi.

– O'zbekiston Respublikasi gerbi Vatanimizning ozodlik ramzidir,– dedi 9-«A» sinf o'quvchisi Javohir Musurmonov. – Davlatimiz bayrog'i esa yurt iftixori ekanligini faxr bilan tilga olish mumkin.

Tadbirda so'zga chiqqan maktab «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati yetakchisi Yulduz Rahmonqulova, yuqori sinf o'quvchilaridan Dilnoza Toshbekova va Doniyor Abdurashidovlar O'zbekiston Respublikasi madhiyasida har birimiz uchun eng ulug', eng aziz bo'lgan ona Vatani, unda yashamoq baxti ta'riflanganini tilga olishdi. Shuningdek, mamlakatimiz qadimiy shaharlar, tarixiy obida va yodgorliklar, gullab-yashnayotgan bog'-rog'lar o'lkasi, bitmas-tuganmas boyliklarga ega ekanligi madh etilganligini to'lqinlab so'zlashdi.

Shundan so'ng, vatanparvarlik tuyg'usini ifodalovchi badiiy adabiyotlar, jismoniy tarbiya va sport turlari bo'yicha fotoalbom, buklet, o'quvchilar tomonidan chizilgan rasm kabi ko'rgazmalar namoyish etildi.

Qiziqarli o'tgan tadbir o'quvchilarning davlat ramzlari haqidagi tasavvurlarini yanada boyitib, mard va sadoqatli bo'lib yetishishiga undashi, shubhasiz.

Feruza ABDULLAYEVA,
Jizzax viloyati

O'QUVCHILAR MEHMONDA

Olmazor tumanidagi 243-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchilari tahririyatimiz mehmoni bo'lishdi.



ZUHRAYDA OLIGAN SURATI

– Men, Mubina Abdulazizova to'qishga qiziqaman. Onajonimga uy ishlarida yaqin yordamchiman,– deya so'z boshladi mehmonlardan biri. – Dugonalarim Maftuna Abdurahimova, Muxlisa Olimova badiiy adabiyotga qiziqishadi. Irodaxon Qodirova va Zuhra Saidg'aniyeva esa rasm chizishni yoqtiradi.

Maktabimizda Konstitutsiyamizning 22 yillik to'yi qizg'in nishonlandi. Maktab direktori Jamshidbek Saidahmedov hamda kutubxonachi Dilafro'z Agzamova yordamida tashkillashtirilgan tadbirga

ota-onalar ham taklif etildi. Loyiha doirasida o'quvchilar o'z huquq va burchlari haqida bilimga ega bo'lishdi.

Kitobxon qizlardan 7-sinf o'quvchilari Maftuna Ikromova va Jamilaxon Ilhomova maktab kutubxonasiga tez-tez tashrif buyurib, savodxonligini oshirib kelayotgani haqida to'xtaldi.

– Maktabga qaytgach, «Tong yulduzi»da mehmon bo'lganimiz, taassurotlarimiz haqida do'stlarimizga so'zlab beramiz,– deydishi qizlar.

Manzura UBAYDULLAYEVA

BOLAGA NIMA BERSANG...



Qishlog'imizdagi Orif buvani katta-yu kichik birdek yaxshi ko'rardi. Ayniqsa, yosh bolalarning u kishiga talpinishini ko'rib, barcha birdek zavqlanardi.

Maktab yo'lida, adirlik etagida boboning o'z qo'llari bilan barpo etgan ajoyib bir bog'i bo'lardi. Saboqdan qaytayotgan biz, bolalar pishib yetilgan, bir-biridan shirin mevalar bilan doimo siylanardik. Eng qizig'i, bog'bon mevalarning eng sarxilini bizga ilinardi. Aniq esimda, sakkizinchi sinfda o'qib yurgan kezarim edi. Maktabdan qaytishda Orif buvaning mehmoni bo'dik. Oltinday tovlanib turgan uzumlardan bir shingildan uzib qo'limizga tutqazdi.

– Ariqdagi suvga bir chayib, so'ng yenglar, osh bo'lsin.

O'rtoqlarim xursand bo'lib ariq tomon yurishdi. Men esa ulardan ortda qolib anchadan beri o'ylab yurganlarimni so'rab olmoqchi bo'ldim.

– Buva, hammamizga doim mevalarning oldini berasiz. Sal bundayrog'ini bersangiz ham bo'laveradi-ku.

Orif buva avvaliga meni endi ko'rib turgandek hayron bo'lib tikilib qoldi. Keyin esa yoqimli jilmaydi.

– Bolaning ko'ngli gavharday toza bo'ladi. Men

o'sha tozalikni buzgim kelmaydi,– dedi u kishi men bilan birga ariq tomon yo'nalarkan. – Taomni

ham pokizasini yeyish, kalomni ham yaxshisini eshitish va so'zlash kerak. Bolaning qo'lga nimani bersang, bir kun kelib o'shani olasan.

Nimagadir Orif buvaning bu gaplari oradan qancha yillar o'tgan bo'lsa ham sira yodimdan chiqmaydi. Bolalar nashrida ishlashim bois, ayniqsa, o'quvchilarni gazetamizga obuna qilish boshlangan kezar Orif buvani qayta-qayta eslayman. Gazetamizning doimiy mualliflari bo'lgan Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev, Dilshod Rajab, Kavsar Turdiyeva, Abdurahmon Akbar va boshqa ko'plab ijodkorlarning bolalarga atalgan sara asarlari nashrimizda chop etiladi. Yosh do'stlarimizning qo'l telefoni yoki kompyuter o'ynlariga mukkasidan ketmay, yuqoridagi adiblarimiz asarlariga oshno bo'lishlari, ma'naviy olamlarini boyitishlarini juda-juda istardim.

Orif buvaning so'zlari esa doimo dil-dilimda jaranglab turgandek bo'laveradi.

Yusuf OG'A

TO BE GOING TO ... Lesson 14 CIRCLE THE WRONG WORD (- moqchi) (Noto'g'ri so'zni belgilang)

«To be going to» o'zbek tiliga «moqchi» deb tarjima qilib, oldindan rejalashtirilgan ish harakatni kelasi zamonda «bajarmoqchiman» deb aytilganda ishlatiladi.

Subject + to be going to + Verb (am, is, are)

For example: I'm going to buy some books tomorrow.

Look at the sky! It's going to snow.

Exercise 1. What are these people going to do?



1. She is going to watch TV



2. He



3. He



4. They



5. She



6. They

Use these words, one of these words unnecessary: read newspaper, drink tea, paint the room, play the piano, buy new shoes.

Dinara SHAKIROVA tayyorladi

CROSSWORD

1 A
2 N
3 I
4 M
5 A
6 L
7 S

Gulshanoy MATKARIMOVA, Andijon viloyati, Oltinko'l tumanidagi 49-umumta'lim maktabining ingliz tili o'qituvchisi

One word in each list does not go with others. Put a circle around them. (Har bir qatordagi so'zlardan biri ma'no jihatidan to'g'ri kelmaydi. Ularni belgilang).

Trees	milk	flowers	grass
Juice	rock	milk	soda
Inch	yard	foot	candy
Price	<u>gallon</u>	pint	quart
milk	butter	cheese	rice

Risolat ISMOILOVA

JACK FROST (Ayoz bobo)

Someone painted pictures on my Windowpane last night – Willow trees with trailing boughs And flowers, frosty white,

And lovely crystal butterflies; But when the morning sun Touched them with its golden beams, They vanished one by one.



EASY IDIOMS TO USE (Ko'p ishlatiladigan iboralar)

- Hang on – kutmoq (=Wait)
- Go ahead – o'zi borib olmoq (=Help yourself)
- Never mind – hechqisi yo'q (=It's OK)
- What's up? – Nima bo'ldi? (=What's the matter?)
- Make up your mind – bir qarorga kelmoq (=Make a decision)



Bless you – sog' bo'ling (=Be healthy)

For example:

Bobur: –Are you coming?

– Yes, hang on.

Sardor: – Can I borrow your dictionary?

Olim: Sure, go ahead.

Umida UMAROVA

FUNNY WINTER RIDDLES (Qishki quvnoq topishmoqlar)



In a winter storm, I keep your neck warm.

I start with the letter B, And your feet go inside of me.



I can't help your nose but, I'm very good at warming toes.

If your head might freeze, Put me on please.



Ibrohim FAYZIRAHMONOV, Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 54-umumta'lim maktabi o'quvchisi

QALBNING DUR-U JAVOHIRLARI

So'z olamining tengsiz dur-u javohirlaridan sizlarni bahramand etish ilinjida yangi ruku tashkil etdik. Unda ulug' bobokalonlarimizning va jahon donishmandlarining ibratli pand-u nasihatlaridan guldasta tayyorlab, sizning hukmingizga havola etishga oshiqdik.

2015-yilga «Keksalarni e'zozlash yili» deb nom qo'yilishi ham bejiz emas. Ota-bobolarimizning bosib o'tgan umr yo'li biz uchun bebaho boylikdir. Shunday ekan, har bir hikmat zamirida kelajakda siz uchun saboq bo'ladigan ibrat borligiga ishonamiz.

Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir.

BERUNIY

Ko'rdimki, eng yaxshi do'st ilm ekan.

Najmiddin KUBRO

Haq yo'lida kim sanga bir harf o'qutmish ranj ila, Aylamak haqqin ado bo'lmas oning yuz ganj ila.

Alisher NAVOIY

Qanday so'z aytasang,

javobiga ham o'shani eshitasan.

HOMER

Do'stingizni xafa qilmaslikning yagona yo'li

uni tushunmoqdir.

Juliya XOLMZ

Saxovatning eng buyuk jasurliklari

Vatanga muhabbat tufayli yuzaga kelgan.

RUSSO

ONAJONIM, YAGONAMDIRSIZ



Quyoshning taftidek issiq kaftingiz, Misoli yulduzdek chaqnar yuzingiz, Go'yo osmon kabi cheksiz bag'ringiz, Onajonim, mening yagonamdirsiz.

Har bir qadamingiz men uchun ibrat, So'zlaringiz bizga duo-yu hikmat. Sizing borlingiz eng ulug' ne'mat, Onajonim, mening yagonamdirsiz.

Iroda HUSANOVA,

Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 248-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi



HAYOTDAN ZAVQ OLAMAN

Yulduzlar ham bor bo'lsin, Charaqlab tursin oftob. Gard yuqmasin yurakka, Ko'ngildir misli kitob.

Orzularni opichlab, Yashashdan zavq olaman. Keksalarning so'ziga Doim quloq solaman.

Gulchehra NIYOZMURODOVA, Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi sport va pedagogika kolleji o'quvchisi



SO'NMAS MASH'AL YO'LIMIZDADIR

Biz erkinmiz, kuchlimiz har dam, Yurt ishonchin oqlaymiz har on. Shu Vatanning yangi avlodi, Hamjihatimiz har bir tirik jon.

Kelajagi buyuk davlatni, Qurmoq bizning qo'limizdadir. Ko'nglimizni yoritib turgan, So'nmas mash'al yo'limizdadir.

O'sha sabab Yurtboshimiz ham, Bizga katta ishonch bildirgan. Yo'limizga yo'lboishi bo'lib, Baxt tulporin olg'a yeldirgan.

Lobar OTAXONOVA,

Xorazm viloyati, Shovot tumanidagi «Do'stlik» kasb-hunar ko'lleji o'quvchisi



QARSHI OLAMAN QISHNI

Daraxtlarning barglari, Unsiz to'kilib ketdi. Oltin kuzning shamoli, Bog'larni hayron etdi.

«Kim?» deya eshik ochib, Qarshi olaman qishni. Har gal hayron qoldirib, Ketar fasllar bizni.

Ibrohim ASATILLAYEV, poytaxtdagi 171-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi



OTAMGA

Oftob kabi nur sochib, Yo'lim yorug' aylaysiz. Mehri quchoq ochib, Qalbg'a poklik joylaysiz.

Otajonim, o'zingiz Mening yaqin insonim. Ta'zimdadir qizingiz, Siz bilan sof iymonim.

Sizga qancha she'r bitsam, Deyman oycha, kuncha kam. Sizni mendek suyadi, Onam, singlim, ukam ham!

Fazilat MIRZOITOVA, Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 54-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi


CHAQMOQ KABI YASHAB O'TDI

Hamza Imonberdiyevning XX asr o'zbek bolalar she'riyatida tutgan o'rni bugungi o'quvchi uchun ham kunday ravshan. Kaminaning faxrlanib yuradigan tomoni ham ana shu bag'rikeng, ko'ngli ochiq inson bilan yaqin do'st bo'lganimdadir. Biz hozirgi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining o'zbek tili va adabiyoti bo'limida tahsil olganmiz, bir-birimizni ma'nan qo'llab-quvvatlab, talabalikning oltin davrlarini birga o'tkazdik.

Hamza bilan ilk tanishgan kunimizdan boshlab apoq-chapoq bo'lib ketgandim. Uning bolalarcha beg'uborligi havasimni keltirardi. Ana shu samimiy fe'l-atvori she'rilariga ham ko'chgan, desam mubolag'a qilmagan bo'laman. Menimcha, undagi bu fazilatlarining deyarli hammasi, asosan, ikkita ta'rifi beqiyos inson – uni murg'akligidan tarbiyalagan, uzoq yillar davomida muallimlik qilgan xolasi hamda marhum dadasining jon-jigari Ro'zimat akadan o'tgan edi. Negaki, ular, mening nazarimda, dunyoning eng ulug', ajoyib odamlari edi. Har ikkalasidan shaxsan o'zim ham ko'p narsalarda ibrat olganim bor.

Hamza birodarimning ijodi, xuddi o'zi singari bag'oyat samimiy, buloq suvidek musaffo edi.

Kechagiday esimda, qadrdonimning bolalarga mo'ljallangan «Quvnoqlar



quvonchi» nomli she'riy kitobi nashr qilindi. To'plamdan joy olgan she'rularning deyarli barchasi yosh kitobxonlar yuragidan mustahkam o'rin oldi.

Azbaroyi yosh bolalarga hurmati zo'rligidan u ilk to'plamini menga emas, balki to'ng'ich o'g'lim Jahongirga atab shunday dastxat yozib bergan:

«Ukam Jahongir!

Zora ushbu kitobchadagi she'rular senga oz-moz quvonch hadya etsa...

Sening ajoyib inson bo'lib voyaga yetishingga tilakdosh akang Hamza. 28. IV. 1985-yil».

Shundan keyin do'stimning bir-biridan qiziqarli, «Sehrli qo'ng'iroq» nomli muqova ichida bo'lgan (Cho'lpon Ergash bilan hammualliflikda) «Shokoladxo'rlar», «Lofchilar – aldoqchilar» to'plamlari dunyoga keldi. Uning erishgan har bir yutug'idan xuddi o'zimizniki kabi quvonardim.

Qadrdonim bu foniy dunyoda bor-yo'g'i qirq uch yilga yaqin umrguzaronlik qildi, xolos. Lekin shu qisqa hayotida badiiy ijod bobida katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Tabiatan o'ta kamtar odam emasmi, o'zi ham bunga intilmagan holda nomini abadiyatga muhrlab ketdi.

Turob YUSUF, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a'zosi

Andijon viloyat o'lkashunoslik muzeyi yurtimizdagi eng yirik ilmiy-ma'rifiy maskan hisoblanadi. Hozirda bu yerda «Tabiat bo'limi», «Qadimgi Andijon tarixi» mavzusidagi ekspozitsiyalar hamda rassomlarning rangtasvir asarlaridan iborat ko'rgazmalar namoyish etilmoqda. Muzey jamg'armasida arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan yigirma besh mingdan ziyod osori-atiqalar saqlanadi.

NOYOB TOPILMA

Andijon shahrining Zavroq qishlog'ida uncha katta bo'lmagan bir tepalik bor. Ushbu tepalikning tuzilishi, joylashgan o'rni, atrofidagi sopol siniqlari arxeologlarni o'ziga jalb qildi. Qazishma ishlari jarayonida ma'lum bo'ldiki, ushbu tepalikda ochilgan imorat VII–VIII asrlarga oid ibodatxonaning o'rni ekan. Ibadatxonaning markaziy zalidan topilgan sopol ko'za, xurmacha, kosa parchalari, ayniqsa, ko'zalarda aks etgan yozuv-belgilar shu vaqtga qadar Farg'ona vodiysidan topilgan turk, uyg'ur va so'g'd yozuvlariga o'xshamas edi. Peterburglik tilshunos V. A. Livshitsning fikricha, ko'zadagi bitiklar yurtimizda mavjud bo'lgan qadimiy yozuvni asoslar ekan. Bu noyob topilma hisoblanib,

hozirgacha bunday yozuvning yana bir nusxasi Samarqanddagi O'zbekiston san'at muzeyi jamg'armasida saqlanayotgan V–VII asrlarga oid tangadir.

Zavroq xona ibodatxonasi nafaqat diniy marosimlarni o'tkazuvchi markaz bo'lgan, balki katta yo'lda joylashganligi tufayli karvonsaroy vazifasini ham bajardi. Ibadatxona 17x26 m. kattaligidagi to'g'ri burchakli 5 m. qalinlikdagi

mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Xona atrofida keng yo'laklar bo'lib, uning o'rtasida to'g'ri burchakli katta o'choqning qirg'oqlari loy bilan suvalgan. Xonada bundan tashqari har xil naqshlar bilan bezatilgan o'n to'rtta o'choq bo'lgan. Yo'laklar oxirida turgan katta xumlarda oziq-ovqat saqlangan.

Bunday madaniy markazlar hamda qal'alar, shaharchalar Andijon, Ashaka, Qo'rg'ontepa, Izboskan va boshqa tumanlarda ham topilgan.

Muzeyda saqlanayotgan har bir ekspozat yoshlarda vatanparvarlik hissini uyg'otadi, zero, muzey zallarida o'tmish darsi ko'rgazmasi

o'quvchilarning o'tmish, madaniyat sohasidagi bilimlarini mustahkamlash omilidir.

M. ALIMOV




Bugungi kunda mamlakatimizda sportning shaxmat turini rivojlantirishga bo'lgan e'tibor yoshlarimizning bu borada qo'lga kiritayotgan yutuqlarida o'z aksini topmoqda. Ayniqsa, Braziliyada maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan mazkur sport turi bo'yicha jahon chempionatida hamyurtimiz, aka-uka Sindorovlarning erishgan g'alabasi e'tirofga loyiq.

AKA-UKA SINDOROVLARNING NAUBATDAGI G'ALABASI

Javohir Sindorov musobaqada to'qqiz yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar o'rtasida oltin medalni qo'lga kiritdi. U braziliyalik Davi Silva Ferreyra, Pedro Karvalio, inglizyalik Druva Bxagvat, Aditiya Paleri, Robert Akeya Prays, turkiyalik Ishik Jan, kolumbiyalik Daniel

Fernando Vargas, perulik Diego Floresni mag'lubiyatga uchratib, oltin medalni qo'lga kiritdi hamda o'zbekistonlik shaxmatchi yoshlar mahoratini yana bir bor dunyoga tanitdi.

Islombek esa musobaqaning yetti yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar o'rtasidagi bahslarda braziliyalik Pietro Mendes, inglizyalik Savin Dias, qozog'istonlik Alim Tuguzboyev, perulik Malpartida Bustamante, mo'g'ulistonlik Batdelger Odgerel, shri-lankalik Sashmita Kotuvella va Rossiya vakili Nikolay Solovyevni mag'lubiyatga uchratgan bo'lsa, hindistonlik Shax Dev bilan durang qayd etdi va bronza medalni sohibi bo'ldi.



N. SULTONOV olgan surat

Joriy yilning 19-noyabr kuni Guliston shahar Olimpiya zaxiralari kollejida 1999–2000-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida sportning dzyudo turi bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi.

SAYXUNOBODLIK DZYUDUCHILAR G'OLIB



Bunda Sirdaryo viloyatining Sayxunobod, Mirzaobod, Oqoltin, Guliston tumani hamda mazkur kollej va 2-viloyat bolalar va o'smirlar maktabi vakillari qatnashdi. Viloyat «Yoshlik» JTSJ raisi K.Yuldashev barcha ishtirokchilarga omad tilab, musobaqani ochib berdi. 60 nafar sportchilar ishtirok etgan ushbu musobaqada 1-o'rin sayxunobodlik sportchilarga nasib etdi. Guliston Olimpiya zaxiralari kolleji jamoasi 2-o'rin, Guliston tumani vakillari 3-o'rinni egallashdi. G'olib jamoalar tashkilotchilarning faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

SAMARQAND SARI OLG'A

Bugungi kunda barkamol avlodga yaratilayotgan imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalanib, ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritib kelayotgan yoshlardan biri farg'onalik Dilnoza No'monovadir.



U yaqinda Marg'ilon shahridagi 29-umumta'lim maktabida 1999–2000-yilda tug'ilgan qizlar o'rtasida voleybol bo'yicha o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida viloyat sharafiga himoya qildi. Musobaqada «A» guruh – Xorazm, Toshkent, Farg'ona, Andijon hamda Namangan viloyati vakillari ishtirok etishdi. Mazkur musobaqada Dilnozaning jamoasi

ustun keldi. Endilikda g'olib jamoa 2015-yilning fevral oyida Samarqandda bo'lib o'tadigan «B» guruh o'yinlarida ishtirok etadi.

OLTITA MEDAL FARG'ONALIKLARDA

Joriy yilning 20–30-noyabr kunlari Toshkent viloyati, Olmaliq shahrida sportning boks turi bo'yicha bo'lib o'tgan o'smirlar o'rtasidagi mamlakat chempionati bahslarida 150 nafardan ortiq charm qo'lqop ustalari ishtirok etishdi. Farg'ona viloyati vakillari 2 ta oltin, 2 ta kumush, 2 ta bronza medallarini qo'lga kiritdi. 81 kg. vazn toifasida bokschi Elshod Rasulov oltin medal sohibi bo'ldi.



BURCH



Kuz allaqachon o'rinni qishga bo'shatib bergan. Undan yo'laklarda to'zg'ib yotgan barglar qolgandi, xolos. Xumora qo'lga supurgini olib, ko'chani tozalay boshladi. Oradan biroz vaqt o'tgach, hammayoq top-toza bo'ldi-qoldi. Shunda u narirozda qo'shni qizning xazonlarni to'plab yoqayotganini ko'rib:

– Iltimos, olovni o'chiring, axir havoni zaharlayapsiz-ku. Buning uchun, eng avvalo, o'zimni aziyat chekamiz, – dedi tashvishlanib. Qo'shni qiz o'z harakatidan pushaymon bo'lib, o'tni o'chira boshladi.

Aziz do'stlar, tabiat bizning umumiy uyimiz ekan, uni asramoq har birimizning burchimizdir.



Durdona SHARAFIDDINOVA,
O'rti Chirchiq tumanidagi 45-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

ERTANGI KUN

UCHUN BUGUNDAN HARAKAT LOZIM

Suratdagi bu bolaning ismi Nozim. U Buxoro shahridagi 39-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 8-sinfida o'qiydi. Sportning kurash turiga qiziqadi. Kelajakda uchuvchi bo'lishni orzu qilgan tengdoshingiz hozirdanoq ingliz tilini mukammal o'rganish harakatida. O'tgan o'quv yilida «Bilimlar bellashuvi»-ning viloyat bosqichida 91 ball to'plab, faxrli o'rinni qo'lga kiritdi. Shu bilan birga, iste'dodli o'quvchi «Ingliz tili bilimdonlari» bellashuvida guruh tarkibida ishtirok etdi va «Buxoro» jamoasi uchinchi o'rinni egalladi.

Nozim Mo'minovning hayotdagi shiori: «Ertangi kun uchun bugundan harakat lozim!» Ko'zlari porlab turgan bu o'quvchida kelajagi nurafshon avlod timsolini ko'rdik.



DUNYO BOLALARI HAYOTIDAN

Hindistonda 14 yoshdan kichik bolalar mehnatidan foydalanishni taqiqlovchi qonunga o'zgartirishlar kiritildi.

Unga ko'ra, 14 yoshdan kichik bolalarni ishga yollash taqiqlandi. Qonunning yangi tahririda og'ir mehnat talab qiluvchi zavod va konlar bola salomatligi uchun zararli maskanlar qatoriga kiritildi. Lekin mutaxassislar mazkur qonunni amalga tatbiq etishning deyarli imkonini yo'q, deya xavotirlanishmoqda. Chunki mamlakatda bolalardan ishchi kuchi sifatida qadimdan keng foydalanib kelinadi. Ularni bunday turmush tarzidan himoya qilish uchun mamlakatda yetarlicha dasturlar ishlab chiqilmagan.

Bunday ma'lumotlarni o'qib, mustaqil diyorimizda biz, yosh avlodga ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklardan behad quvonamiz. O'z navbatida, bilim olishimiz, hunarli bo'lishimiz, sport bilan shug'ullanib, sog'lom kamol topishimiz uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlarga munosib javob berishga intilamiz.

Zero, fuqarolari qadrlanadigan Qomusi bor mamlakatda yashash baxti nasib qilganidan faxrlanamiz.

Nigora JO'RAYEVA tayyorladi

O'QING, BU O'ZIQ!

G'AROYIBOT

Amerikalik tadqiqotchilar ekspeditsiyasi suv osti dunyosining eng sirli va tutqich bermas jonzoqlaridan birini suratga tushirishga muvaffaq bo'ldi.

550 metr chuqurlikda yashaydigan g'ayrioddiy ko'rinishga ega bo'lgan bu baliqni ixtiologlar Kaliforniya shtatidagi Monterey Kanonda aniqlab, foto va videokamera bilan jihozlangan batiskaf (chuqur suv ostida yuradigan qurilma) yordamida tasvirga muhrladi.

LIMONLI PIROG



Limon kishi kayfiyatini ko'tarishda, ayniqsa, shamollaganda foydali ligini yaxshi bilasiz. Bugun tavsiya qilayotgan pishirig'imiz ajoyib ta'mi va oson tayyorlanishi bois, sizlarga juda yoqadi.

Kerakli mahsulotlar: 250 gramm margarin, 4 ta tuxum,

2 piyola shakar, 200 gramm smetana, 2,5 piyola un,

10 gramm qavartma, 3 ta limon, 200 gramm qand upasi, 400 gramm qaymoq, 50 gramm kokos qirindisi, folga qog'ozi.

Tayyorlanishi: Idishga tuxum chaqilib, shakar bilan ko'pirtiriladi. Margarin idishda eritilib, smetana bilan aralashiriladi. Aralashmaga un va qavartma solinadi. Hammasi aralashirilgach, teng uch qismga bo'linadi. Gaz patnisiga folga qog'ozi solinib, ustiga aralashma quyiladi. 180° haroratda qizdirilgan pechda 15 daqiqadan pishirib olinadi. Sovitilgan korjlar orasiga limonli nachinka surtib chiqiladi. Usti va yonlariga qaymoqli kremdan surtilib, kokos qirindisi sepiladi.

Limonli nachinka:

3 ta limon bo'laklarga bo'linib, urug'i tozalanadi va mayda qilib to'g'raladi. 400 gramm qaymoqqa shakar asta-sekinlik bilan solinib, yaxshilab ko'pirtiriladi. Hammasi aralashirilib, korjlar orasiga surtiladi.


Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

KROSSVORD

Kataklar soniga qarab berilgan so'zlar yordamida ularni to'ldirib chiqing.



Zar Silliq
Lola Masala
Xola Sog'lom
Karam Qalamdon

Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV

TEZ AYTISHLAR

Tohir Tolibga taom tayyorladi.

Qahramon Qodirni qorbo'ron qildi.

Aziza ayiqchasini asrab-avaylaydi.

Komila kapalakni kitobda ko'rdimi, kapalakni kitobda Karima ko'rdimi?



Ozoda ERKINOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU 3-bosqich talabasi

Gazetamizning 49-sonida berilgan «MUQADDAS DIYOR» KROSSVORDining javoblari: Bo'yiga: 1. «Humo». 3. Otayev.

14. Shaxmat. 16. Tennis. 17. Afandi. Yo'ylar bo'yicha: 1. Xorazm. 2. Muskat. 4. Akobirov. 14. Sharif. 15. Fitrat.

«Zanjir» holida: 5. Gaz. 6. Zarafshon. 7. Narshaxiy. 10. Kandakorlik. 11. Kurash. 13. Shofirkon. 13. Nok. 18. «Buxoro». 19. Olot.

20. Temirova. 21. Ark. 22. Kitob. Diagonal bo'yicha: 8. Qorako'l. 9. Xo'jayev.

15-dekabr 2014



Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Sa'dullo TURSinOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Yusuf
ABDULLAYEV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 29417
Buyurtma – S 1616

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.